

ROSSIYA IMPERIYASINING TOSHKENTGA HARBIY YURISHI VA UNING OQIBATLARI**I. M. Xaydarov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrası professorı, tarix fanları doktori (DSc).*

E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Bahodirov Abdug‘anixo‘ja

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

E-mail: abduganibahodirov93@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Rossiya imperiyasining XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoga kengayish siyosati doirasida Toshkent shahrining 1865-yilda bosib olinish jarayonini va uning harbiy-siyosiy oqibatlarini tahlil etadi. Maqolada general-mayor M.G. Chernyaev qo‘mondonligidagi rus qo‘shinlarining 1864–1865-yillardagi yurishlari, Toshkent mudofaasi, mulla Alimqulning halok bo‘lishi, suv ta‘minotini uzish va mahalliy sotqinlarning roli kabi muhim omillar batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqot Toshkentning zabt etilishi natijasida Turkiston viloyatining tashkil topishi va Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati hamda uning uzoq muddatli oqibatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik, Chernyayev, Qo‘qon xonligi, harbiy yurishlar, Alimqul, Turkiston viloyati, Kamolon darvozasi, qal‘alar, mudofaa, “Ahdnoma”, Niyozbek qal‘asi, O‘rta Osiyo.*

THE MILITARY CAMPAIGN OF THE RUSSIAN EMPIRE AGAINST TASHKENT AND ITS CONSEQUENCES

Abstract. *This article analyzes the process of the capture of Tashkent city in 1865 and its immediate military-political consequences within the framework of the Russian Empire’s expansionist policy in Central Asia during the mid-19th century. The article details the military campaigns of Russian troops under the command of Major-General M.G. Chernyaev in 1864–1865, the defense of Tashkent, the death of Mullah Alimqul, the cutting off of water supply, and the role of local traitors as important factors. This study helps to better understand the establishment of the Turkestan Province as a result of the conquest of Tashkent*

and the Russian Empire's colonial policy in Central Asia along with its long-term consequences.

Keywords: *Tashkent, Russian Empire, colonialism, Cherniaev, Khanate of Kokand, military campaigns, Alimqul, Turkestan Oblast, Kamolon Gate, fortresses, defense, "Treaty", Niyozbek Fortress, Central Asia*

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoga nisbatan faol istilochilik siyosatini olib bordi, bu jarayonda Toshkent shahri muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Toshkent Qo‘qon xonligi tarkibida bo‘lib, O‘rta Osiyoning yirik savdo, hunarmandchilik va ma‘muriy markazi sifatida tan olingan edi. Rossiya qo‘shinlarining 1847-yildan boshlab Sirdaryo va Yettisuv yo‘nalishidagi yurishlari Turkistonni egallashning dastlabki bosqichini tashkil etdi. General M.G. Chernyaevning o‘zboshimchalik bilan olib borgan harbiy harakatlari podsho saroyining rasmiy ko‘rsatmalariga zid bo‘lishiga qaramay, muvaffaqiyatli yakun topdi. 1864-yilda Avliyoota, Turkiston va Chimkent shaharlarining bosib olinishi Toshkentni zabt etish uchun zamin yaratdi. Toshkentning 20 kilometrlik mustahkam devorlari, 12 ta darvozasi va qurollangan garnizoni uni Qo‘qon xonligining eng himoyalangan shaharlaridan biriga aylantirgan edi. Shahar aholisi va Qo‘qon lashkarboshisi mulla Alimqulning birlashgan kuchlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Chernyaevning 1864-yil oktabrdagi birinchi hujumi muvaffaqiyatsiz yakunlangan bo‘lsa-da, rus qo‘shinlari qishki tayyorgarlikdan so‘ng yangi kuch bilan hujumga o‘tdi. Suv ta‘minotini uzish va atrof qishloqlarni egallash kabi taktikalar Toshkent mudofaachilarining ahvolini og‘irlashtirdi. Mahalliy aholi orasidagi sotqinlarning faoliyati rus qo‘shinlariga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi. 1865-yil may-iyun oylaridagi janglar Toshkentning taqdirini hal qiluvchi bosqich bo‘ldi. Alimqulning halok bo‘lishi himoyachilar ruhiyatiga salbiy ta‘sir etgan muhim omil sifatida baholanadi. Kamolon darvozasi orqali amalga oshirilgan muvaffaqiyatli hujum natijasida rus qo‘shinlari shaharga bostirib kirdi. Shahar vakillari bilan tuzilgan “Ahdnoma” mustamlakachilar tomonidan o‘z harakatlarini qonuniylashtirish vositasi bo‘lib xizmat qildi. Toshkentning bosib olinishi O‘rta Osiyo xalqlarining mustaqilligi uchun olib borilgan kurashning muhim sahifalaridan birini tashkil etadi.

Asosiy qism. Rossiya imperiyasi 1847-yildan O‘rta Osiyo mintqasiga keng istilochilik yurishlarini boshlab yubordi. Xususan: 1847-yil Sirdaryoning Orol den-giziga quyiladigan joyi - Raim qal‘asi, 1852-53-yillari Oqmachit qal‘asi, 1854-yil-da Olmaota o‘rnida Verniy harbiy qal‘asining qurilishi Turkistonni egallashda hal qiluvchi o‘rin tutgan istehkomlardan bo‘ldi. 1853–1856-yillardagi Qrim urushi tu-fayli vaqtincha to‘xtab qolgan harbiy harakatlar 1860-yil yozida yana faollashdi. Shu yili polkovnik Zimmermann qo‘mondonligidagi rus qo‘shinlari To‘qmoq va Pishpak (hozirgi Bishkek) qal‘alarini egalladi.

1861-yil 21-iyunda podsho Aleksandr II saroy kengashida Qo‘qon xonligi hududlarini bosib olish zarurligini ta’kidladi. Shunga ko‘ra, 1861–1863-yillar mobaynida rus qo‘shinlari Yangi Qo‘rg‘on, Din Qo‘rg‘on, Merka, Oqsuv, Pishtepa va Choldovar qal’alarini egalladi⁴³. 1863-yilning yozida polkovnik Chernyayev boshchiligidagi rus qo‘shinlari Suzoq qal’asini zabt etdi.

Polkovnik Chernyayev boshchiligidagi 2500 kishilik qo‘shin 1864-yil 4-iyunda Qo‘qon xonligiga qarashli Avliyoota (hozirgi Jambul) qal’asini bosib oldi. Chernyayev Avliyootani egallagani uchun general-mayor unvoni va orden bilan taqdirlandi.

1864-yil 12-iyunda polkovnik Veryovkin qo‘mondonligidagi qo‘shin Turkiston shahri ni, general Chernyayev qo‘shini esa 22-sentabrda Chimkent shahrini bosib oldi.

Avliyoota va Turkistonning dushman tomonidan zabt etilishi butun Qo‘qon xonligini oyoqqa turg‘azdi. Toshkent shahri chorizm bosqinchilariga qarshi kurashning markaziga aylandi. Bu yerga Marg‘ilondan Yusufbek, Xo‘janddan Mirza Ahmad qushbegi qo‘mondonligida qo‘shinlar, Andijon, Namangan, O‘sh va boshqa joylardan harbiy qismlar keltiriladi. To‘plangan qo‘shin va xalq qasoskorlariga Qo‘qon xonligining lashkarboshisi mulla Alimqul boshchilik qiladi.

General Chernyayev o‘zining butun vujudi va nigohini Toshkent shahrini egallashga qaratadi. Holbuki, podsho Aleksandr II bu shaharni olishni man qiluvchi qat’iy buyruq bergan edi. Chernyayev 1864-yil 27-sentabrda 8 rota, 100 nafar kazak, 12 zambarak, 1500 askar va 400 qozoq militsiyasi (ko‘ngillilari) bilan Toshkent tomon yo‘l oladi.

Bu vaqtda shahar 20 kilometrlik devor bilan o‘ralgan bo‘lib Qo‘qon xonligiga qarashli shaharlar ichida eng mustahkami bo‘lgan. Shaharda 12 ta darvozasi bo‘lib, doimiy ravishda 2-4 ming askar va qo‘shimcha tarzda 20 ta zambarak saqlangan. Shayhontohur (aslida Shayx Hovand Tohur), Sebzor, Beshyog‘och va Ko‘kcha nomlaridagi to‘rt dahaga bo‘lingan. 1871-yilgi ma’lumotga ko‘ra, Shayhontohur dahasidagi 48 mahallada ko‘proq temirchilar, to‘quvchilar, egar-jabduq ustalari va yog‘ tayyorlovchilar, Sebzordagi 38 mahallada bo‘yoqchilar, tikuvchilar, etikdo‘zlar; Ko‘kchadagi 31 mahallada ko‘nchilar, kosiblar yashaganlar. Bu yerda 340 charm ishlab chiqaradigan korxonalar, 218 kosibchilik korxonasi bo‘lgan. Beshyog‘och mahallasida esa ko‘proq boy tabaqalar, uning atrofidagi joylarda esa g‘ishtchilar istiqomat qilgan. Shaharda 189 masjid, 10 madrasa bor edi. Shahar aholisi orasida mohir merganlar, jasoratli va mard kishilar hamda Vatan uchun jonini fido etuvchilar ko‘pchilikni tashkil etgan. Shahar aholisining soni bir ma’lumotda 200 ming, boshqasida esa 100 ming qilib ko‘rsatiladi. Shahar mudofaasi uchun Toshkent garnizonida 30 ming himoyachi, 48 mis va 15 ta cho‘yan to‘p bor edi.

⁴³ Shamsutdinov R., Ubaydullayev O‘., Karimov Sh. Vatan tarixi. II kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 156.

1864-yilning 2-oktabridan boshlab har ikki tomon o‘rtasida to‘plardan o‘qlar uzildi. General Chernyayev boshchiligida shahar devori to‘plardan o‘qqa tutilgandan keyin, podpolkovnik Obux 2 rota askari va 4 to‘pi bilan hujumga o‘tib, devorning bir qismini teshishga erishadi. Shundan keyin rus askarlari podpolkovniklar – Obux va Lerx qo‘mondonligida shu joydan shaharga bostirib kirish uchun zovurni kechib o‘tishga harakat qilganlar⁴⁴. General Chernyayev 2 rota askar bilan shahar devoriga yaqinlashsa-da, lekin g‘alaba qilishga ishonmay, 12 zambarakdan shaharni o‘qqa tutdi. Shu paytda zovurdagi ayrim ruslar fursatdan foydalanib, ularga qo‘shilish imkoniga ega bo‘ladilar. Xullas, general Chernyayev sharmandalarcha mag‘lubiyatga uchrab, 4-oktabrda Chimkentga qaytib ketishga majbur bo‘ldi.

Shahar aholisi bir yoqadan bosh chiqarib, qahramonona kurashganlari tufayli katta g‘alabani qo‘lga kiritish imkoni tug‘ilgandi. G‘oliblarni shaharliklar katta tantana bilan qarshi oldilar.

Ammo shunday bo‘lishiga qaramay ruslar Toshkent va uning atrofidan o‘tuvchi karvon yo‘llarini shu jumladan oziq-ovqat yetkazib beruvchi qishloqlarni o‘z qoll’ariga olishga muvaffaq bo‘lishadi. 1864-yil 27-oktyabrda Chernyayev Chimkentdan harbiy vazirga yuborgan maxfiy xatida shunday yozadi: “ Biz tomondan karvon yo‘llarining bosib olinishi natijasida chorakta non 5 so‘m o‘rniga 12 so‘mgacha, bir bosh qo‘y 3.5 so‘mdan 7-9 so‘mgacha ko‘tarildi”.

Chernyayev 1864–1865-yil qishini harbiy tayyorgarlik bilan o‘tkazdi⁴⁵, uning qo‘shinlari Sibir va Orenburgdan yetib kelgan qurol-yarog‘, yangi batalonlar, sapyorlar rotalari bilan to‘ldirildi. Mahalliy aholi orasida o‘z Vataniga xiyonat qiluvchi, dushmanidan panoh izlovchilar ham topildi. Abdurahmonbek, Saidazimboy, Soatboy kabi sotqinlar Toshkentni egallashda Chernyayevga ko‘maklashdilar. 1865-yil bahoridan Chernyayevning yangi hujumi boshlandi. Chernyayev 1865-yilning 29-aprelida Toshkent shahridan 25 kilometr uzoqlikda joylashgan Niyozbek qa’lasini egallashga muvaffaq bo‘ladi. Toshkentlik bir xoinning maslahatiga ko‘ra, Chernyayev Kaykovus arig‘i to‘g‘onini buzib, uni Chirchiq daryosiga burib yuboradi. Natijada toshkentliklar suvsiz qolib, og‘ir ahvolga tushadilar. Shunga qaramay, aholi mudofaani mustahkamlashga kuch-g‘ayratini ayamaydi. Ko‘p o‘tmay, Qo‘qondan lashkarboshi Alimqul qo‘shini bilan madad bergani keladi. Bu toshkentliklar ruhini ko‘tarib yuboradi. Ular qo‘qonliklarni zo‘r xursandchilik bilan qarshi oladilar. Shundan so‘ng Amirlashkar Toshkent mudofaasiga zudlik bilan otlanadi. U

⁴⁴ Sodiqov H., Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi (Turkiston chorizm mustamlakachiligi davrida). I kitob. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 94.

⁴⁵ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – B. 222.

Qo‘qondan Toshkent shahriga 8-may kuni 6 ming kishilik qo‘shin bilan yetib keldi. Rus manbalariga ko‘ra jang 9-may kuni ertalab soat 7 larda boshlangan. Shahar himoyachilari turli joylarga o‘rnatilgan 12 tadan 36 tagacha bo‘lgan zambarak bilan qurollanib mudofaani kuchaytirishdi. Jang paytida bir o‘q Amirlashkarning qornini teshib kindigidan chiqib ketadi va ko‘p o‘tmay halok bo‘ladi. Bu hol albatta jangchilarimizning ruhiy holatiga salbiy ta‘sir qiladi. Buning ustiga qirq ikki kun davomida suvsizlik va tashnalikda tish-tirnog‘igacha qurollangan dushmanga qarshi olib borilgan mudofaa jangi Toshkent shahri aholisining tinkamadorini quritadi. Ustiga-ustak, Chernyayev shaharga hujumni janubdan – Temur darvozasi yoqdan boshlab, Buxoro va Xorazmdan keladigan yordam yo‘lini kesib tashladi. Shaharga chetdan yordam umuman bo‘lmadi. Alimqul vafotidan so‘ng Chernyayev Toshkent shahrining jangsiz taslim bo‘lishini kutadi. Ammo shahar aholisi kurashni davom ettiradi.

Toshkent shahriga Buxoro amirligidan yordam kuchlari kelayotganligini eshitgan Chernyayev 9-mayda hal qiluvchi hujumga o‘tadi⁴⁶. Chernyayevning may oyidagi hujumlari ham samarasiz bo‘lib, shaharni egallay olmadi. Shundan so‘ng u Buxoro tomondan qo‘shin kelishini inobatga olib, 1865-yil 17-mayda Zangiota orqali borib, Chinozni egalladi. Keyin yana orqaga qaytib, Toshkent yaqinida qoldirilgan Krayevskiy boshchiligidagi harbiy qismga kelib qo‘shiladi. General Chernyayev Kamolon darvozasidan shaharga bostirib kirishni rejalashtiradi.

Shu tariqa 14-iyundan 15-iyunga o‘tar kechasi polkovnik Abramov, podpolkovnik Jemchugnikovlar boshchiligidagi 7 rota askar va 8 zambarakdan tashkil topgan qo‘shin Kamolon darvozasining yonidagi bog‘lar orqali shahar devoriga yaqinlashadi. 15-iyun kuni ertalab qo‘shin hujumga o‘tadi va sarosimada qolgan qal‘a himoyachilari qochib qoladi. Shaharda janglar boshlanib ketadi, himoyachilar va aholining qattiq qarshiligiga qaramay, ruslar shaharni egallashga muvaffaq bo‘lishadi. Ma‘lumotlarga qaraganda, ruslardan 25 kishi o‘ldirildi, 118 kishi jarohatlandi. 1865-yil 17-iyunda qarshilik ko‘rsatishning foydasizligini hisobga olgan shahar himoyachilari shaharni topshirish uchun muzokaralarni boshlaydi. Chunki Chernyayev Shayhontohur, Beshyog‘och va boshqa aholi gavjum yashaydigan joylarga to‘plarni o‘rnatib, agar darhol sulh tuzilmasa, shaharni to‘plardan o‘qqa tutib, kultepaga aylantiraman, deb dag‘dag‘a qiladi. Janglar to‘xtagach, shahar kattalaridan Muhammad Solih dodxoh, Eshoni Buzurg Xo‘ja Qo‘zining o‘g‘li Ahmadxo‘ja mufti bilan boshqa nufuzli odamlar va Chernyayev Xo‘ja Alambardor degan joyga to‘planishadi hamda “Ahdnoma” tuzishga kirishiladi.

Ahdnoma besh nusxada tuzilib, biri general Chernyayevga topshirilgan, qolgan to‘rttasi Shayhontohur, Beshyog‘och, Ko‘kcha va Sebzor dahalari vakillariga topshirilgan. Ahdnoma

⁴⁶ Kuzikulov I. Qo‘qon xonligi tarixi. – Namangan: Namangan, 2014. – B. 74.

nusxalariga shaharning atoqli kishilarining muhrlari bosilib, imzo chekdilar. Shuningdek, general Chernyayev ham o‘z imzosini qo‘ydi. Sulh ahdomasiga ko‘ra, shahar xalqining o‘z dinida qolishi, barcha ishlar «shariat» asosida olib borilishi, hovli, bog‘ va maydonlar avvalgidek o‘z egalari qo‘lida qolishligi ko‘rsatiladi. “Ahdnoma” 1865-yil 1-iyuldan boshlab kuchga kiradi.

Toshkent shahrining Chernyayev tomonidan bosib olinishi Peterburgda zo‘r mamnuniyat bilan kutib olingan bo‘lsa-da, hukumatning ayrim odamlari bundan norozi bo‘lib, tahlikaga tushgan edilar. Chunki Toshkentning bosib olinishi munosabati bilan xalqaro matbuotda katta shov-shuvlar ko‘tarilmoqda edi. Chernyayev bu holning oldini olish uchun va o‘zining bosqinchilikdan iborat vahshiyona harakatlarini oqlash maqsadida ayyorlik yo‘liga o‘tib, maxsus xat tayyorlattiradi. Toshkent shahri aholisi nomidan tayyorlatilgan bu xatda go‘yo shahar general Chernyayevga “o‘z ixtiyori” bilan taslim bo‘lganligiga asosiy urg‘u berilgan edi.

Bunday soxta xat yozilishiga qarshi bo‘lgan Solihbek dodxoh, Abulqosim eshon, Hakimxo‘ja singari vatanparvarlar Sibirga surgun qilingan⁴⁷. Shu bilan Toshkent podsho hukumati ixtiyoriga o‘tib, Turkiston o‘lkasining harbiy, siyosiy va ma‘muriy markaziga aylantirildi.

Harbiy istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlarda Turkiston viloyati tu zilib, unga harbiy qo‘shin qo‘mondoni, general-mayor M. Chernyayev gubernator qilib tayinlandi. 1865-yil 6-avgustda qabul qilingan “Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom”ga muvofiq viloyatda harbiylashtirilgan boshqaruv tartiblari o‘rnatildi. Viloyat bo‘limlarining harbiy asosda tashkil qilinishidan maqsad podsho hukumatining kelgusidagi harbiy rejalari amalga oshirilishida tayanch ma‘muriy hudud vazifasini o‘tashi ko‘zda tutilgan edi.

Xulosa. Toshkent shahrining 1865-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi O‘rta Osiyoning keyingi taqdirini belgilab bergan muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Shahar aholisining qahramonona mudofaasi va mulla Alimqul rahbarligidagi qarshilik bosqinchilarga jiddiy qiyinchilik tug‘dirdi. Suv ta‘minotini uzish va mahalliy sotqinlarning yordami mudofaani zaiflashtiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi. “Ahdnoma” tuzilishi orqali bosqinchilik harakatlari qonuniylashtirishga urinilganligi tarixiy fakt sifatida ko‘rib chiqiladi. Toshkentning zabt etilishi Turkiston viloyatini tashkil etish va keyingi istilolarning harbiy-siyosiy tayanchiga aylandi. Mustamlaka boshqaruvi harbiy asosda tashkil etilib, mahalliy aholining huquqlari cheklangan sharoitda o‘rnatildi. Vatanparvar rahbarlarning Sibirga surgun qilinishi mustamlakachilik siyosatining repressiv xususiyatini

⁴⁷ Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 184.

ochib berdi. Bosib olish natijasida shahar iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzilishi va ma’muriy hayoti tubdan o‘zgardi. Ushbu voqea O‘rta Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun olib borgan kurashining muhim sahifalaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, Toshkentning bosib olinishi Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatining muvaffaqiyatli bosqichi bo‘lib, uzoq muddatli siyosiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
2. Kuzikulov I. Qo‘qon xonligi tarixi. – Namangan: Namangan, 2014.
3. Sodiqov H., Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi (Turkiston chorizm mustamlakachiligi davrida). I kitob. – Toshkent: Sharq, 2011.
4. Shamsutdinov R., Ubaydullayev O‘., Karimov Sh. Vatan tarixi. II kitob. – Toshkent: Sharq, 2010.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.
6. Xoliqova R.E. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998.